mákemeleri aldında turǵan qáwip-qáterler, zamanagóy sharayatta muzıka bilimlendiriwin rawajlandırıw perspektivaları kórsetip ótildi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются ключевые изменения в музыкальной педагогике XXI века, связанные с технологическим развитием, инклюзивностью, цифровизацией и междисциплинарными подходами. Особое внимание уделяется примерам из Узбекистана, где наблюдается активная интеграция национального музыкального наследия в образовательный процесс, развитие инклюзивных методик и цифровых технологий. Обозначены вызовы, стоящие перед педагогами и образовательными учреждениями, а также перспективы развития музыкального образования в современных условиях.

SUMMARY. This article explores the main transformations in 21st-century music pedagogy, focusing on the influence of digital technologies, inclusive education, and new pedagogical methods. Special emphasis is placed on Uzbekistan, where national traditions are being integrated with modern teaching strategies. The article identifies current challenges for music educators, including technological adaptation and inclusive access, while outlining future prospects for music education in the digital age.

QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARI VA UNING TARBIYADAGI AHAMIYATI

Ruslan Kudenov – “*Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: xalq qo‘shiqlari, og‘zaki ijod, milliy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, estetik tarbiya, pedagogika, axloqiy fazilatlar, xalq ijodi, madaniy meros, vatanparvarlik.

Ключевые слова: народные песни, устное творчество, национальное воспитание, духовные ценности, эстетическое воспитание, педагогика, нравственные качества, народное творчество, культурное наследие, патриотизм.

Key words: folk songs, oral art, national upbringing, spiritual values, aesthetic education, pedagogy, moral qualities, folk art, cultural heritage, patriotism.

Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida shakllangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy-madaniy boylikdir. Ushbu boy meros tarkibida xalq qo‘shiqlari muhim o‘rin egallaydi. Qo‘shiqlar xalqning tarixi, urf-odatlari, diniy e’tiqodi, estetik qarashlari va axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Ayniqsa, ular yosh avlodni tarbiyalashda, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda, shaxsiy kamolotni ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari va tarbiyaviy xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Xalq qo‘shiqlari xalqning ijtimoiy hayoti, dunyoqarashi va turmush tarzining badiiy ifodasidir. Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarida mehnat, sevgi, tabiat, urush, ajrim, ona tiliga muhabbat kabi mavzular keng yoritilgan. Ular orqali tarixiy voqealar yoritilib, milliy xotira saqlanadi. Misol uchun, “Sarqayǵan suwlar”, “Kók mázarlıq” kabi qo‘shiqlar xalqning ijtimoiy-hissiy kechinmalarini yoritadi.[1.1]

Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari turli yoshdagi tinglovchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, har biri o‘ziga xos tarbiyaviy funksiyani bajaradi:

- **Beshik qo‘shiqlari** – bolani tinchlantirish, unga mehr-oqibat, ona tiliga muhabbatni singdirish vazifasini bajaradi.
- **Mehnat qo‘shiqlari** – halol mehnatga da’vat qiladi, jamoatchilik hissini kuchaytiradi.
- **Vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar** – el-yurtga sadoqat, milliy iftixor, ozodlik g‘oyalarini singdiradi.
- **Axloqiy-didaktik qo‘shiqlar** – sabr-toqat, halollik, keksalarga hurmat, mehr-oqibat, do‘stlik kabi qadriyatlarni targ‘ib etadi. [1.2]

Bugungi ta’lim-tarbiya tizimida xalq og‘zaki ijodidan, xususan, xalq qo‘shiqlaridan samarali foydalanish zarur. Pedagogik nuqtai nazardan olganda, xalq qo‘shiqlari quyidagi yo‘nalishlarda tarbiyaviy vosita bo‘la oladi: **Milliy identifikatsiyani shakllantirish:** Qo‘shiqlar orqali yoshlar o‘z tarixiy ildizlariga, xalqiga va madaniyatiga yaqinlashadi.

- **Estetik tarbiya:** Musiqa, ohang va she’riy vositalar orqali estetik did, badiiy tafakkur rivojlanadi.
- **Ma’naviy-axloqiy tarbiya:** Ijtimoiy hayotga mos qadriyatlar, ijobiy insoniy fazilatlar mustahkamlanadi.
- **Kommunikativ kompetensiyalar:** Qo‘shiqlar orqali ona tili va nutq madaniyati boyiydi.

Shuningdek, xalq qo‘shiqlari zamonaviy adabiyot, teatr, kino va musiqiy ta’limda ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.[1.3]

Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari xalqning madaniy xotirasi va tarbiyaviy merosining ajralmas qismidir. Ular yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ma’naviy barkamollikni shakllantirish, jamiyatga foydali shaxsni voyaga yetkazish jarayonida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy potensialidan samarali foydalanish, ularni ta’lim jarayonlariga integratsiyalash muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda. Shu asosda, xalq qo‘shiqlarini o‘rganish, ularni ommalashtirish va zamonaviy tarbiya jarayonlariga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo‘lgan xalq qo‘shiqlari, o‘z mazmuni va shakli jihatidan har bir davr tarbiyasining asosiy g‘oyalarini ifodalagan. Xalq qo‘shiqlari turli turlari orqali inson hayotining barcha jihatlarini qamrab oladi — tug‘ilishdan tortib, mehnat, urush, sevgi, ajrim, ijtimoiy hayot va o‘limgacha. Har bir qo‘shiq turi o‘ziga xos tarbiyaviy funksiyaga ega bo‘lib, bu jihatlar xalq pedagogikasining chuqur qatlamlarini ochib beradi. [1.4]

Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g‘oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma’naviy ozuqa beradi. Hozirgi kunda ham musiqa va cholg‘u ijrochiligini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdan iboratdir.

Zamonaviy jarayonda o‘tmish an’analariga yangicha qarash, ilg‘or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, ya’ni insonlarni ruhiy hamda ma’naviy tarbiyasiga asos bo‘la oladigan omil sifatida qaraladi. Mustaqillik bizga qadim qadimdan ota bobolarimizdan meros urf odatlarimizga erkin amal qilish imkonini berdi. Shu o’rinda azaldan to’y-tomosha oshuftasi o’zbek xalqining to’y marosimlari bilan bog’liq an-a’nalari hamda rasm- rusmlari faqatgina xursandchilik va shodiyonalik bo’libgina qolmasdan, balki, muayyan maqsadga qaratilgan, asrlar davomida rioya qilinib kelinayotgan diniy udumlar majmui hamdir. [1.5]

Inson hayotini san’atsiz, xalqning ma’naviy boyligi bo‘lgan milliy musiqasi, adabiyotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. San’at odamlarga nafaqat ma’naviy ozuqa beribgina qolmay, tananing jismoniy salomatligi orqali kamolotga erishishida ham muhim o‘rin tutadi. Adabiyotga, musiqiy nafosatga intilish - bu bugun paydo bo‘lgan odat emas, u insonda mehnat va atrof-olam ta’sirida paydo bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davronova Z. “Xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati”. Science and Education xalqaro jurnal, 2025.

2. Kudayberganova B. “Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarining ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati”. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. 2024.

3. Abdurasulov A.A.“O‘zbek xalq qo‘shiqlari tarixi, mazmuni va ijtimoiy pedagogik ahamiyati” Educational Research in Universal Sciences. 2024. 345-352.

4. Komilova Sh., Abdullayeva. D. “Xalq og‘zaki ijodining ahamiyati” Tadqiqotlar-jahon ilmiy-metodik jurnal. 2025.

5. Aytmuratova Z. “Qoraqalpoq folklorining yetuk shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati” Eurasian journal of Social Sciences, Pilosophy and Culture. 2024.

REZYUME. Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va hayot tarzini aks ettiruvchi muhim madaniy meros hisoblanadi. Bu qo‘shiqlar orqali yosh avlodga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqat kabi ijobiy fazilatlar singdiriladi. Shu bois, Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari nafaqat badiiy asar sifatida, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

РЕЗЮМЕ. Каракалпакские народные песни являются важным элементом культурного наследия, отражающим традиции, ценности и образ жизни народа. Через эти песни молодому поколению прививаются такие качества, как патриотизм, гуманизм, трудолюбие, уважение к родителям и верность национальным традициям. Поэтому каракалпакские народные песни важны не только как художественные произведения, но и как средство воспитания.

SUMMARY. Karakalpak folk songs are a significant part of cultural heritage, reflecting the traditions, values, and lifestyle of the people. These songs instill positive qualities in the younger generation such as patriotism, humanism, diligence, respect for parents, and loyalty to national values. Thus, Karakalpak folk songs are important not only as works of art but also as effective tools for moral and cultural education.

FESTIVAL FENOMENI: MADANIY VA IJTIMOIY ASPEKTLARI

Sobir Madiyev – *o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Tayanch so‘zlar: musiqiy festivallar, madaniy meros, “Sharq taronalari”, “Ilhom-XX”, simfonik musiqa, janr, baxshi san’ati.

Ключевые слова: музыкальные фестивали, культурное наследие, «Шарк тароналари», «Илхом-XX», симфоническая музыка, жанр, бахши искусство.

Key words: musical festivals, cultural heritage, "Sharq Taronalari", "Ilhom-XX", symphonic music, genre, bakhshi art.

KIRISH. San’at qadimdan mavjud har bir millat madaniyatini yuksaltiruvchi beqiyos manbaa bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Ko‘p davrlik taraqqiyoti davomida musiqa san’atining serqirra yo‘nalishlari, uslublari, janr va shakallari, ijod va ijrochilik borasida ko‘lamini keng va rang-barang, umumjahon va milliy qadriyatlari kamol topgan. Musiqa san’atini keng tinglovchilar doirasida targ‘ib qilish, insonlarning bilim va tafakkurini kengaytirish, badiiy didini shakllantirish, san’at olamida yaratilgan musiqiy namunalar orqali yuksak ma’naviy-ma’rifiy maqsadlarni amalga oshirish, har bir madaniyatning muhim maqsadini belgilaydi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, aynan ma’rifatli va madaniyatli insonlargina jamiyatni olg‘a suruvchi va yuksak cho‘qqilarga ko‘tarishga qodir qudratli kuch hisoblanadi. Qadimdan bu vazifani “festival” nomi bilan o‘z ichiga olgan yirik hodislar amalga oshirgan.

Ma’lumki, dunyoda mavjud har bir festivalning tarixi, kelib chiqishining asosiy sabablari, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari bo‘lgan va ular ma’lum g‘oyalar asosida tashkil etilgan. Xozirgi kunga kelib jahon sahnalarida san’at va madaniyat sohasiga oid o‘zkazilayotgan turli festival va ko‘rik tanlovlar soni nihoyatda ko‘p. Maqola doirasida bizning e’tiborimiz asosan O‘zbekiston hududida o‘tkazilayotgan musiqiy festivaliga qaratildi.

Musiqa festivallari san’atning o‘ziga xos bayrami bo‘lib, mahoratli asarlar bellashuvi, sohaning yangiliklari, uslublar va tamoyillar bilan tanishish, tajriba almashish, o‘z faoliyatiga tashqaridan razm solish imkoniyatidir. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida butun dunyo san’at ustalarining ijodiy tajribalari bilan o‘rtoqlashish, qadim musiqiy an’analar davomiyligi, vorisiylikdagi o‘ziga xos o‘zgarishlar, yuzaga kelgan yangi musiqiy to‘lqinlar va eksperimentlarni jamoaviy tarzda baholash uchun festivallar nihoyatda zarur. Zero, har qanday mamlakat san’atkorlari o‘zi erishgan yutuqlar bilan qoniqmay, azaliy musiqa qadriyatlarini targ‘ib etishi, o‘zgarayotgan dunyo san’ati yangiliklari bilan muntazam ravishda tanishib borishi va shu tariqa ijodkorlik salohiyatini yanada kengaytirib bormog‘i muhim.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida bu so‘zga alohida ta’rif beriladi. “Festival (lot. festivus – quvnoq) musiqa, teatr, kino, estrada, sirk san’ati yutuqlari ko‘rigidan iborat ommaviy bayram. Ilk bor 18-asr boshlarida Buyuk Britaniyada yuzaga kelgan. 20-asrdan xalqlararo keng tarqalgan. Milliy va xalqaro festivallar bo‘ladi”. [1.225.] Ushbu bayram musiqa, teatr, raqs, kino san’ati kabi qaysi doirada tashkillashtirilmasin, muayyan xususiyatlarga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi. Bular quyidagilardir:

shakliga ko‘ra - *tanlovli va tanlovsiz ;*

mazmunga ko‘ra - *muayyan yo‘nalishga asoslangan* yoki *aralash;*

qamroviga ko‘ra - *xalqaro, mintaqaviy, respublika doirasida.*

Agar tanlovli festivallarda hakamlar hay’ati tomonidan o‘rinlar, nominatsiyalar baholansa, tanlovsiz yo‘nalishda esa barcha qatnashchilar festivaldagi ishtiroki uchun diplom bilan taqdirlanadilar. Shuningdek, barcha yo‘nalishdagi festivallarda homiylar, jamoatchilik, turli tashkilotlar tomonidan ham mukofotlar belgilanadi.

Mazmuniga ko‘ra muayyan yo‘nalishdagi festivallar esa ma’lum musiqaning muayyan janri yoki yo‘nalishi asosida o‘tkaziladi. Masalan, respublikamizda o‘tkaziladigan “Sharq taronalari”, “Boysun bahori”